

JIDUda Kuzatuv kengashining navbatdagi yig'ilishi o'tkazildi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Kuzatuv kengashining 2024-yil 23-iyulda bo'lib o'tgan yig'ilishida 2024-2025-o'quv yili uchun bakalavriat va magistratura talabalarining shartnoma asosidagi o'qish to'lovlarini qayta ko'rib chiqish masalasi muhokama qilindi. Universitetni rivojlantirishning strategik vazifalari va ta'lim xizmatlari bozori tahlilini inobatga olgan holda, to'lov miqdorlarini indeksatsiya qilish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Qabul qilingan chora-tadbirlar universitetning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, professor-o'qituvchilar va xodimlarni qo'llab-quvvatlash hamda moddiy-texnik bazani mustahkamlashga qaratilgan.